

TA'LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISHNING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI

*Otaxanov Nurillo Abdumalikovich,
NamDU professori, PhD.
E-mail: nurillo_otaxanov@list.ru.*

Annotatsiya

Bugungi kunda raqamlashtirish ta'lim jarayonida ham o'z aksini topmoqda. Bu jarayon dinamik bo'lib, rivojlanishda davom etadi va manfaatdor tomonlarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va texnologik imkoniyatlariga moslashadi. Bunday ta'limiy texnologiyalarning ijobiy va salbiy oqibatlarini e'tiborga olgan holda tashkil qilish ta'limning yangi istiqbollarini ochib, innovatsiyalar, yangi ta'lim modellarini ishlab chiqish va umuman ta'lim sifatini oshirish uchun zamin yaratadi.

Ushbu maqolada ta'lim tizimini raqamlashtirishning eng muhim ijobiy va salbiy tomonlari haqida mulohazalar yuritiladi.

Tayanch iboralar: raqamlashtirish, ta'lim jarayoni, raqamli texnologiyalar.

Аннотация

Сегодня цифровизация находит свое отражение и в образовательном процессе. Этот процесс динамичен, продолжает развиваться и адаптируется к меняющимся потребностям и технологическим возможностям заинтересованных сторон. Организация учебного процесса с учетом положительных и отрицательных последствий таких оцифрованных технологий открывает новые перспективы образования, закладывая основу для инноваций, разработки новых моделей обучения и повышения качества образования в целом.

В этой статье рассматриваются наиболее важные положительные и отрицательные стороны цифровизации системы образования.

Ключевые слова: цифровизация, образовательный процесс, цифровые технологии.

Abstract

Today, digitalization is reflected in the educational process. This process is dynamic, continues to evolve and adapts to the changing needs and technological capabilities of stakeholders. The organization of the educational process, taking into account the positive and negative consequences of such digitized technologies, opens up new educational prospects, laying the foundation for innovation, the development of new learning models and improving the quality of education in general.

This article examines the most important positive and negative aspects of digitalization of the education system.

Keywords: digitization, educational process, digital technologies.

KIRISH. Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotiga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Ular borgan sari jamiyatning ko‘plab sohalarini qamrab olib, jamiyatdagi faoliyat ko‘rsatish usullariga, o‘zaro munosabatlarga, odamlarning vaqt o‘tkazish shakllariga, turmush tarzining o‘zgarishiga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda jamiyatning boshqaruv organlari, ishlab-chiqarish korxonalari, ta’lim muassasalari hamda fuqarolar oldida bu jarayonga qo‘shilishlari uchun tabiiy zarurat tug‘iladi.

Raqamli jamiyat – bu raqamli texnologiyalar (katta hajmdagi axborot va sun’iy intellektni qayta ishlash texnologiyalari, algoritmlar va algoritmik tizimlar, bulutli hisoblash va boshqalar) yordamida ishlaydigan boshqaruv, tashkiliy, ijtimoiy infratuzilmaviy o‘zaro ta’sirlarni amalga oshirishga ko‘mak beradigan murakkab vositalar majmuasidir.

Bugungi kunda raqamli jamiyatning quyidagi xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘lmoqda: eng murakkab raqamli texnologiyalar va texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi; ijtimoiylashuvning kattagina qismini kiberfazoga ko‘chirish; fuqarolar ongini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida qayta shakllantirish; ma’lumot uzatuvchi subyektlarni almashtirish.

Ko‘plab sohalar kabi ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qitishning yangi usullarini qo‘llash yordamida ta’lim sifatini yaxshilashga ko‘mak beradi. Zamonaviy yoshlar uchun o‘quv ma’lumotlarini olishlari uchun yangi manbalarning yuzaga kelishi ta’lim sifatini oshirishga hamda uni yanada moslashuvchan bo‘lishiga ko‘maklashuvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Bunday imkoniyatlardan foydalanish ta’lim muassasalarining jamiyat va iqtisodiyotdagi nufuzi va ahamiyatini orttirishga olib keladi. Sog‘lom raqobatchilik sharoitida zamon bilan hamnafas va yangi raqamli imkoniyatlardan foydalanuvchi oliy o‘quv yurtlari boshqalarga nisbatan ustuvorlikka erishishi tabiiy hol.

Ushbu maqolada ta’lim jarayonini raqamlashtirishning afzalliklari va kamchiliklari haqida mulohaza yuritiladi. Uning dolzarbligi ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalarning avzalliklari va kamchiliklarini e’tiborga olgan holda tashkil qilishning o‘qitish samaradorligini orttirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Falsafiy mulohazalar tarixida texnologik innovatsiyalarning jamiyat jamiyat va ta’lim jarayonidagi muammolari, avzalliklari va kamchiliklarini aniqlash masalalari ko‘plab olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida keng o‘rganilmoqda. Xususan, E. Shmidt va J. Koenlar raqamli madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy oqibatlarini to‘g‘risida o‘z mulohazalarini bayon qilishgan [9]. Ta’lim muassasalarining innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hamda jamiyatni raqamlashtirish sohasidagi eng muhim obyektlardan biri hisoblanishi qator ilmiy ishlarda e’tirof etilgan [1, 2].

Raqamlashtirish muammolari va raqamli madaniyatning ta’lim tizimida ro‘y berayotgan jarayonlarga ta’siri ko‘plab olim tomonidan har tomonlama o‘rganilmoqda. Bu o‘rinda E.V. Maslanov [3], A.O. Mirzayev [4], V. Osaula [5],

Y.Y. Petrunin [6], A.A. Strokov [7], Y.B. Tsverkun [8], va boshqa olimlarning tadqiqotlarini tilga olish mumkin. Mazkur olimlar o'z ilmiy ishlari orqali ta'lim tizimini raqamlashtirishning turli imkoniyatlari, avzalliklari va salbiy tomonlari haqida fikr-mulohazalarini bayon etishgan. Shuningdek, mavjud muammolarning tizimli tabiati va ta'lim sohasida raqamlashtirishni rivojlantirish istiqbollari bag'ishlangan tadqiqotlarning yetishmasligi e'tirof etilgan.

TADQIQOT USULI VA MATERIALLARI. Mazkur tadqiqotning obyekti jamiyatning raqamlashtirish amaliyotining ta'lim sohasini modernizatsiyalashga ta'siri dinamikasini o'rganishdan iborat bo'lib, o'zbek va xorijiy olimlarning ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish sohasidagi qarashlari va boshqa sohalardagi nazariy tadqiqotlarga asoslanadi. Unda tizimli va dialektik yondashuvlar qo'llanilgan.

Ushbu ishning maqsadi va vazifalari ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish sharoitida ta'limni raqamlashtirish muammolarini tahlil qilishga falsafiy va madaniy yondashuvlar bilan belgilanadi.

Texnik jihatdan abstrakt va noaniq bo'lgan modellardan ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari hamda ta'lim amaliyotida foydalanish usullari yordamida qo'llanadi. Ularning zamonaviy ta'lim muhiti va shaxsning ijtimoiylashuv jarayonlariga kompleks ta'sirini o'rganishda qiyosiy va tizimli tahlil usullaridan keng foydalanilgan. Milliy xususiyatlar hamda ilm-fan va texnologik yutuqlar yordamida tashkil qilinadigan ta'lim jarayonida an'anaviy va innovatsion uyg'unlikni ta'minlash sohasidagi mulohazalar umumlashtirilgan.

Jamiyatning raqamlashuvi sharoitida ta'lim jarayonini boshqarishni bo'yicha nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish hamda ularni amalda qo'llash zarurati bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy ta'lim qiyofasini shakllantirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishda fanlararo yondashuvlardan keng foydalanilgan.

Shuningdek, mazkur maqolada qaralayotgan muammo bilan bog'liq falsafiy, ijtimoiy, pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, mavjud ma'lumotlar induksiya va deduksiya, taqqoslash, modellashtirish, kuzatish, sintez qilish va umumlashtirish kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI. Jamiyat va iqtisodiyotni raqamlashuvi zamonaviy texnika va texnologiyalarning kishilarning turmush tarzida chuqur kirib borishiga olib kelmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishiga axborot texnologiyalari sohasidagi islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning globallasuvi jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Jamiyatning raqamlashuvi iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, xodimlarning mehnat faoliyati va sharoitlarini takomillashtirishga, bo'sh ish o'rinlarini yaratishga, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga, ijtimoiy hayotni farovonlashtirishga olib keladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot

texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”⁴.

Prezidentimiz ta’kidlagan bu g‘oyalar ta’lim jarayonida ham borgan sari o‘z aksini ko‘proq topmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida zarur infratuzilmalarning yaratilishi hamda elektron ta’lim resurslari hajmining ortishi natijasida oliy ta’lim muassalarida masofaviy ta’limning yo‘lga qo‘yilishini ta’kidlash mumkin. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ta’lim sifatiga ta’sirini o‘rganish o‘qitish va o‘rganish borasida ko‘plab yangi pedagogik tadqiqotlar o‘tkazishni, avzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilishni taqozo etadi.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish ta’lim jarayoni ishtirokchilari uchun quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

1) Ta’lim muassasalari uchun:

– ta’lim muassasi nufuzini yuqori darajalarga ko‘taradi, raqobatbardoshligini orttiradi;

– talabalar sonini ko‘paytirishga va qo‘shincha iqtisodiy foyda olish uchun yo‘l ochadi;

2) O‘qituvchilar uchun:

– individuallashtirish va mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish orqali ta’lim jarayonini samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshiradi;

– o‘quv ma’lumotlarini talabalarga yetkazish va tushuntirish usullarini kengaytiradi;

– mashg‘ulotlarni talabalarining individual xususiyatlari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan holda guruhli, individual va mustaqil ta’lim shakllarini yuqori samara bilan tashkil etishga imkon beradi;

– shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida har bir talabaning imkoniyatlarini baholash, ular uchun optimal o‘quv strategiyasini shakllantirish, individual ta’lim traektoriyasini belgilash yordamida talabalarining bilim olish faolligini oshirishga, ta’lim jarayoniga bo‘lgan turg‘un qiziqishini saqlashga hamda o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirilishiga ko‘mak beradi;

– ta’limning virtual va real tarkibiy qismlarini uyg‘unlashtirish orqali bilimlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita uzatishga yo‘l ochadi;

– zamonaviy texnologiyalar hamda turli ta’limiy platformalardan (Moodle, Stepik, Coursera kabi) kompleks foydalanish asosida auditoriyadan tashqari ishlarni kuchaytirishga yordam beradi;

– ta’lim jarayonini boshqarish, elektron vositalar yordamida o‘quv materiallarini ko‘rgazmali taqdim etish, talabalar bilan tezkor aloqa o‘rnatish, talabalar bilimni haqqoniy baholash, kuzatish, nazorat qilish, raqamli didaktik vositalarni modernizatsiyalash, tahrirlash va to‘ldirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

3) Talaba va bitiruvchilar uchun:

– bitiruvchilarning raqamlashgan jamiyatdagi mehnat faoliyatiga tayyorgarlik darajalarini oshiradi;

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.

– raqamli madaniyat hamda tegishli kompetensiyalarni shakllantirish orqali ishga joylashishda raqobatbardoshlikni ta'minlaydi;

– bilim olishga qaratilgan faolligi va turg'un qiziqishini saqlagan holda o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

– muammolarni hal qilishning iqtisodiy samarador usullarini izlash va amalda qo'llash, zarur ma'lumotlarni qidirish va qayta ishlash ko'nikmalarini, "masofaviy" munosabatlarga kirishish o'rganilayotgan buyum, xodisa yoki jarayonlarni vizualizatsiyalash bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantiradi;

– talabalarning mustaqil qabul qilish, kommunikativlik va ijodiy fikrlash salohiyatlarini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonini raqamlashtirishda uning quyidagi salbiy oqibatlarini ham e'tiborga olish talab qilinadi:

1) Ta'lim muassasalari uchun:

– ta'lim jarayonini raqamlashtirish bilan bog'liq bo'lgan texnik va ta'limiy resurslarni tashkil etish, jamg'arish, saqlash va amalda foydalanish uchun zarur pedagogik – texnik sharoitlarni ta'minlash hamda bu muammolarni hal qilish uchun qo'shimcha harajatlar talab qilinadi;

– bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida bozor talab va ehtiyojlarini muntazam ravishda o'rganish va tahlil qilish asosida ta'lim standartlariga o'zgarishlar kiritish, yangi ta'lim yo'nalishlarini tashkil qilish, mavjudlarining o'quv hujjatlarini modernizatsiyalash zarurati yuzaga keladi.

2) O'qituvchilar uchun:

– o'qitishning raqamli zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullarini izlash, tahlil qilish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish;

– ta'lim jarayonini boshqarish, elektron vositalar yordamida o'quv materiallarini ko'rgazmali taqdim etish, talabalar bilan tezkor aloqa o'rnatish, talabalar bilimni haqqoniy baholash, kuzatish, nazorat qilish, raqamli didaktik vositalarni modernizatsiyalash, tahrirlash va to'ldirish sohasida qo'shimcha mehnat talab etiladi.

3) Bitiruvchi va talabalar uchun:

– raqamli texnologiyalar rolining o'sib borishi oqibatida inson ijtimoiy taraqqiyotning asosiy tashabbuskori va dvigateli sifatida avvalgi o'rnini yo'qotishi mumkin;

– yangi texnologiyalarga asoslangan ijtimoiy-mehnat turmush tarzi odamni muammolarni innovatsion texnologiyalarsiz hal qilish imkoniyatidan mahrum qilishi mumkin;

– ko'pincha talabalar ijtimoiy qadriyatlarni nazarga olmaydilar bunga harakat ham qilmaydilar. Ularda ijtimoiy xudbinlik shakllanadi, "Men" degan shaxsiy sifat mutloqlashadi, ajralib turish, boshqalar e'tiborini o'ziga jalb qilish va ularda taassurot qoldirish istagi rivojlanadi [7].

Ta'limni raqamlashtirish jarayonini uning tadqim etishi mumkin bo'lgan avzalliklari hamda salbiy oqibatlarini e'tiborga olgan holda amalga oshirish ta'lim maqsadlariga erishish, ta'lim sifatini oshirish, kompetensiyalarni rivojlantirish va

talabalarni raqamlashgan jamiyatda faoliyat ko'rsatishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu barcha manfaatdor tomonlarning, jumladan, ta'lim muassasalari, pedagog va talabalar hamda boshqa manfaatdor tomonlarning (ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlari va b.) ishtiroki va hamkorligini talab qiladi.

XULOSA. Ushbu tadqiqot doirasida ta'lim sohasini raqamlashtirishning ijobiy va salbiy tomonlarini obyektiv tahlil qilishga erishildi. Unda mahalliy ta'lim tizimini raqamlashtirishning bir qator dolzarb muammolari va istiqbollari bayon qilindi.

Ta'limni raqamlashtirish dinamik jarayon bo'lib, u rivojlanishda davom etadi va manfaatdor tomonlarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va texnologik imkoniyatlariga moslashadi. Bunday ta'limiy texnologiyalarning ijobiy va salbiy oqibatlarini e'tiborga olgan holda tashkil qilish ta'limning yangi istiqbollarini ochib, innovatsiyalar, yangi ta'lim modellarini ishlab chiqish va umuman ta'lim sifatini oshirish uchun zamin yaratadi.

Ta'lim tizimini raqamlashtirishning eng yaqin istiqbollari uchta hal qiluvchi yo'nalishni o'z ichiga olishi kerak: birinchidan, ta'lim muassasalarini sifatli dasturiy ta'minot bilan jihozlash, ta'lim resurslariga erkin kirishni ta'minlaydigan infratuzilmalarni yaratsih; ikkinchidan, bu talaba va o'qituvchining bilvosita o'zaro munosabatlarini qamrab oluvchi axborot (masofaviy) texnologiyalarini joriy etish; uchinchidan, ta'lim faoliyatini va talabalar va o'qituvchining onlayn o'zaro ta'sirini tashkil etishga imkon beradigan onlayn ta'lim (e-Learning). Albatta raqamlashtirish o'quv va talabalarga qo'yiladigan talablarni o'zgartiradi, rag'batlantiradi, yangi tashkiliy ta'lim tuzilmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta'limni modernizatsiya qilish muqarrar, chunki u zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak. Bu jarayonni innovatsiyalarning ijobiy va salbiy oqibatlarini hisobga olish va ularni an'anaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirgan holda tashkil etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Gryaznova E., Kozlova T., Sulima I. Forming and realizing a pedagogue's philosophical culture. *The Turkish Online Journal of Design, Art and Communication-TOJDAC*, 2018, special edition, pp. 2136-2142.

2. Lundie D. The givenness of the human learning experience and its incompatibility with information analytics. *Educational Philosophy and Theory*, 2017, vol. 49, no. 4, pp. 391-404, Doi: doi.org/10.1080/00131857.2015.1052357.

3. Масланов Е.В. Цифровизация и развитие информационно-коммуникационных технологий: новые вызовы или обострение старых проблем? // *Цифровой ученый: лаборатория философа*. 2019. Т.2, №1. С.6-21.

4. Mirzayev A.O. Mamlakatimiz ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari. *Academic Research in Educational Sciences*, 2021, 2(12). В. 1046-1051. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1046-1051.

5. Osaula V. et al. Digitization Of Education: Current Challenges Of Education. International Journal of Computer Science and Network Security, 21(11), November, 2021. Doi: doi.org/10.22937/IJCSNS.2021.21.11.50. P.368-374.

6. Петрунин Ю. Ю. Искусственный интеллект: ключ к будущему? // Философские науки. 2018. №4. С.96-113.

7. Строков А. А. Цифровизация образования: проблемы и перспективы. Вестник Мининского университета. 2020, 8(2). С. 2-15. DOI: 10.26795/2307-1281-2020-8-2-15.

8. Tsverkun Y.B. Digitalization in education: problems and prospects in teaching a foreign language at the university. (December 13, 2022). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=4301504>.

9. Шмидт Э., Коэн Дж. Новый цифровой мир. Как технологии меняют жизнь людей, модели бизнеса и понятие государства. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2013. 368 с.